

**TURIZM SOHASIDA MALAKALI KADRLAR TAYYORLASH JARAYONLARINI
TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI**

Xayitov Baxtiyor Juma o‘g‘li
Qarshi davlat universiteti magistri
Qosimov Jahongir
PhD,

Turizm va marketing kafedrasida dotsenti.

Annotatsiya. Mazkur maqolada Qashqadaryo viloyatida turizm bozorida raqobat muhitining tobora keskinlashib borayotganligi va innovatsion taraqqiyot turistik mahsulotlar asosiy omiliga aylanganligi turizm sohasi uchun yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash mexanizmini takomillashtirish haqida sўz yuritiladi

Kalit so‘zlar: turizm, ishchi kuchi, turistik xodim, turoperator, gid, yuqori malakali kadrlar, turizm va mehmonxona xo‘jaligi.

Аннотация. В данной статье рассматривается необходимость совершенствования механизма подготовки высококвалифицированных конкурентоспособных кадров для туристического сектора в условиях все более жесткой конкуренции на туристическом рынке Кашкадарьинской области и того факта, что инновационное развитие стало основным фактором развития туристических продуктов.

Ключевые слова: туризм, рабочая сила, работник туристической отрасли, тuroperator, гид, высококвалифицированный персонал, туризм и гостиничный бизнес.

Abstract. This article discusses the need to improve the mechanism for training highly qualified competitive personnel for the tourism sector, given the increasingly fierce competitive environment in the tourism market in the Kashkadarya region and the fact that innovative development has become the main factor in the development of tourist products.

Keywords: tourism, workforce, tourist employee, tour operator, guide, highly qualified personnel, tourism and hotel industry.

Kirish. Mamlakatimizda iqtisodiy taraqqiyot sur‘atlarini jadallashtirishga qaratilgan islohotlarda turizmni rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan, Taraqqiyot Strategiyasida soha uchun kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish kabi masalalar mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning ifodasi ekanligidan dalolat beradi. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida aholi turmush darajasining oshishi bilan aholining dam olishga, uning sifatiga bo‘lgan talablari ham tobora ortib, sayyohlik industriyasining istiqbolli va ustuvor tarmoqlaridan biriga aylanib bormoqda. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish qo‘shimcha rag‘batlantirishda YUNESKO ro‘yxatiga kiritilgan. Biroq turizm maqsadlarida amalda juda kam foydalanilayotgan qadimiy tarixiy me‘morchilik yodgorliklari, xalq og‘zaki ijodiyoti yodgorliklari, qo‘riqxonalar, tog‘, suv turizmi va boshqa turlari mavjud. Ushbu turistik resurslardan samarali foydalanishda o‘z ilmiy va aqliy salohiyatini safarbar etuvchi «ishchi kuchi», «turistik xodim», «turoperator», «gid» pirovardida «kadrlar» deb ataladi. Turizm sohasida yuqori malakali kadrlar deganda, intellektual salohiyati yuqori, malaka va kasbiy mahorati yetarli darajada, ijtimoiy-iqtisodiy holatlarni prognoz qilish va adekvat baholash qobiliyatiga ega, turistik jarayonni boshqarishda tizimli

yondashuv kompetentlik layoqatiga ega, turizm industriyasining zamonaviy talablari me'yorlari doirasida mehnat faoliyatini tashkil qiladigan turistik xodim tushuniladi. Ushbu ta'rifga asoslangan holda turizm sohasida «yuqori malakali kadr» tushunchasining xususiyatlariga to'xtalib o'tish mumkin. Yuqori malakali turistik kadrning xususiyatlari deganda, turizm bilan muayyan bog'liq vazifalarni hal etish, qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun foydalanilishi mumkin bo'lgan imkoniyatlar, manbalar, vositalar kabi holatlarning jamlanmasiga ega, alohida shaxs, jamiyat, umuman davlatning imkoniyatlari tushuniladi. Shu o'rinda turizm bozorida raqobat muhitining tobora keskinlashib borayotganligi va innovatsion taraqqiyot turistik mahsulotlar asosiy omiliga aylanganligi yuqori malakali kadrlarni jahon standartlari asosida tayyorlash turistik tashkilotlar uchun yuqori ijtimoiy ahamiyatga egadir. Yetakchi ilmiy-tadqiqot markazlari tomonidan turizmning zamonaviy sharoitlar uchun maqbul bo'lgan strategik boshqaruv shakllari va usullarini amalga oshirish imkoniyatlarini, soha taraqqiyotiga ta'sir etuvchi omillarni va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, turizm sohasi uchun yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash, sohaga innovatsion texnologiyalarni joriy etish, turizm sohasida hududiy turistik klasterni tashkil qilish, hududlarda turizmni rivojlantirish orqali aholini yangi ish o'rinlari bilan ta'minlash, sohani rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish borasida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

O'zbekistonda turizm sohasidagi oliy ta'lim muassasalarining reytingi va raqotbardoshligini oshirishga, turizm industriyasining zamonaviy talablariga muvofiq raqotbardosh malakali kadrlar tayyorlashga, ta'lim sifatini oshirishga, ta'lim jarayoniga investitsiyalar, innovatsiyalar va yuqori texnologiyalarni joriy qilish masalalariga alohida e'tibor berilmoqda. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida «2026-yilga turizm sohasida band bo'lgan aholi soni 2 baravarga oshirib, 520 ming nafarga yetkazish»2 vazifasi belgilangan. Bu borada YUNESKO ro'yxatiga kiritilgan davlat turistik obektlaridan ichki va kiruvchi turizmni rivojlantirishda keng foydalanish, sohaga investitsion mablag'larni jalb qilishning «sinergetik samara beruvchi turli nisbatdagi kombinatsiyalarini qo'llash, turizm sohasida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ularni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, turizm sohasida xalqaro talablarga javob beradigan uzluksiz, ko'p bosqichli ta'lim tizimini yaratish, turizm sohasidagi gid-tarjimon, ekskursiya yetakchisi va yo'riqchi-yo'l boshlovchilarning kasbiy malakasini sertifikatlashtirishni ham ko'zda tutuvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlashning sinergetik samara beruvchi tizimini yaratish masalalari yuzasidan ilmiy izlanishlarni yanada kengaytirish bo'yicha keng ko'lamli tadqiqotlar olib borilishini taqozo qilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-son «O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha choratadbirlari to'g'risida», 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi farmonlari, 2017-yil 27-iyundagi PQ-3151-son «Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot tarmoqlari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2021-yil 30-oktabrdagi PQ5270-son «Turizm, madaniy meros va muzeyshunoslik sohalarida malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2022-yil 18-fevraldagi PQ-135-son «Turizm va madaniy meros vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 26-iyuldagi 407-son «Turizm sohasi subektlari uchun yaratilgan shartsharoitlarni yanada yaxshilash munosabatlari bilan O'zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi qarori hamda sohaga oid boshqa meyoriy-

huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.


Turizm sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlashni takomillashtirish masalalari bo'yicha A.Asher, R.Barro, D.Duglas, E.C.Andrade, E.Xanushek, B.R.Kozma, A.Maddison, Dj.Filipp, L.Pritchett va boshqa xorijiy olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan. Mustaqil davlatlar hamdo'stligi olimlaridan Y.O.Akvazba, Y.V.Balaskiy, N.N.Bedenko, K.N.Gojenko, A.X.Jankaziyev, A.P.Kolyadin, L.Polishuk, A.K.Savina, V.I.Suxochevlar turizm sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish masalalari hamda ularni hal etish bo'yicha takliflar keltirib o'tilgan.

O'zbekistondagi iqtisodchi olimlardan N.Tuxliyev, I.S.Tuxliyev, B.Navruzzoda, M.Q.Pardayev, M.M.Muhammedov, M.T.Aliyeva, N.S.Ibragimov, O.S.Qahharov, D.X.Aslanova, M.T.Alimova, A.T.Mirzayev, A.Eshtayev, B.Safarov, A.O.Ochilov, Z.T.Abdulhakimov, Z.T.Bakayev, M.A.Quymuratova, A.P.Maxmudova kabilar sohaga oid ilmiy tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar. Maqolaning asosiy vazifasi turizm sohasiga yuqori malakali kadrlar tayyorlashni obektiv zarurligi va nazariy asoslarini baholash; turizm sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmining o'ziga xos xususiyatlari va muammolarni yoritish; turizm sohasida yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda global talablardan kelib chiqish zaruratini aniqlash; O'zbekistonda turizm industriyasi uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashning hozirgi holati tahlil etish; respublikada turizm industriyasidagi yuqori malakali kadrlar faoliyati samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar holatining ekonometrik tahlilini amamlga oshirish; turizm sohasida yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlanganlik darajasiga ta'sir qiluvchi omillar va ularni aniqlash yo'llarini belgilash; turizm sohasiga yuqori malakali kadrlar tayyorlashni hududiy klasterini rivojlantirish modelining o'zaro bog'liqligining tahlili qilishdan iborat.

Tahlil va natijalar:

Bugungi kunda, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida turizm sohasining roli yanada oshib borishi, soha uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlashni taqozo qiladi. Shu bilan birga mamlakatimizda tizim sohasida rivojlanishning huquqiy-me'yoriy darajasidan foydalanish mexanizmining amal qilish holatiga bog'liqdir. Chunki yuqori malakali kadrlarni tayyorlash va ularga qo'yiladigan talablarni nazorat qilish, boshqarish va tartibga solish uchun ushbu sohada tashkiliy-iqtisodiy mexanizmining takomillashish imkoniyatlarini ishga solishga olib keladi. Bu jarayon albatta huquqiy - me'yoriy talablarga asoslangan holda amalga oshirish lozim bo'ladi. Shu tufayli turizm sohasi uchun alohida yondashuv, ya'ni tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy-me'yoriy mexanizmlarni birga yaxlit holda olib borishni maqsadga muvofiq, deb topdik. Turizm sohasi uchun malakali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda uning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish lozim.

1-rasm Turizm sohasida raqobatbardosh kadrlarning bilishi lozim bo'lgan jihatlari



1-rasmdan ko'rinib turibdiki, turizm sohasida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash uchun sohaning o'ziga xos xususiyatlariga javob beradigan bo'lishligi lozim. Bulardan turli tillarni bilishni, turli millat vakillari bilan muloqot qilishni, turistlarning ruhiy holatini inobatga oladigan bilimlarga ega bo'lishligi lozim.

2024/2025 o'quv yilidan davlat oliy ta'lim muassasalarida turizm va mehmonxona xo'jaligi sohalarida kadrlar tayyorlash tizimi uch yillik oliy ta'lim dasturlari asosida yo'lga qo'yildi. Bunda, o'quv jarayoni "blok-modul" tizimiga asoslangan dual ta'lim shaklida tashkil etildi. Jarayonning nazariy va amaliy mashg'ulotlar ulushi quyidagicha bo'lishi kerak:

- 1-bosqichda — 80% nazariy va 20% amaliy;
- 2-bosqichda — 50% nazariy va 50% amaliy;
- 3-bosqichda — 30% nazariy va 70% amaliy.

Turizm sohasida kadrlar tayyorlovchi OTMlarda yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan amaliyot bazalarini (turoperator, turagent, gid-tarjimon, mehmonxona va turizm transporti xizmatlarini ko'rsatish obyektlari) belgilangan tartibda tashkil etishga ruxsat berildi.

2027-yilgacha turizm sohasida kadrlar tayyorlovchi OTMlarning amaliyot bazalarida ko'rsatilgan xizmatlar uchun foyda solig'i mazkur soliq bo'yicha belgilangan soliq stavkalariga nisbatan 50%ga kamaytirilgan stavkada to'lanadi.

2025/2026 o'quv yilidan Samarqand shahridagi Xalqaro turizm akademiyasida mehmonxonalar va restoranlar uchun yuqori malakali xizmat ko'rsatuvchi xodimlarni tayyorlash yo'lga qo'yiladi.

2025-yil "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti qoshidagi professional ta'lim muassasalariga xalqaro darajada tan olingan ta'lim dasturlarini "franshiza" asosida joriy etildi.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi quyidagilarni amalga oshiradi:

- 2024/2025 o‘quv yiligacha turizm va mehmonxona xo‘jaligi sohalari bo‘yicha oliy ta‘lim dasturlarini jahon reytingida birinchi 100 talikka kiruvchi nufuzli OTMLarning ta‘lim dasturlari asosida qayta ko‘rib chiqadi;
- turizm va mehmonxona xo‘jaligi sohalariga oid oliy ta‘lim yo‘nalishlarining dual ta‘lim shakli bo‘yicha Ta‘limning xalqaro standart tasniflagichi darajalari bilan uyg‘unlashgan yangi malaka talablari hamda ta‘lim dasturlarini ishlab chiqadi;
- belgilangan OTMLar huzurida shartnoma asosida arab, yapon, xitoy, hind, ispan, italyan, koreys, urdu, indonez va malay tillarida xizmat ko‘rsatuvchi gid-tarjimonlarni tayyorlash bo‘yicha qo‘shimcha kurslarni tashkil etadi.

Restavratrlarni qayta o‘qitish va malakasini oshirish markazi negizida yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan Turizm sohasida kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish markazi tashkil qilinadi.

Xulosa va takliflar.

Turizm sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlashni takomillashtirish bo‘yicha quyidagi ilmiy xulosalar olindi va ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. “Turizm sohasida yuqori malakali kadrlar”, “yuqori malakali turistik kadrning xususiyatlari”, “turizm sohasiga yuqori malakali kadrlar tayyorlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi” tushunchalarini “yuqori malakali kadr” kategoriyasiga oid ta‘riflar va tushunchalari asosida takomillashtirilgan holda qo‘llash maqsadga muvofiq.
2. Turizm sohasiga yuqori malakali kadrlar tayyorlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari oliy ta‘lim xizmatlari va bitiruvchilar raqobatbardoshligini oshirishda huquqiy-me‘yoriy mexanizm imkoniyatlaridan foydalanish tizim.
3. Turizm sohasi uchun kadrlarni tayyorlashda turistik korxonalar bilan davlat, ta‘lim tashkilotlari, mehnat bozori, innovatsion markazlar, jamoat tashkilotlari o‘zaro hududiy integratsiyasi asosida “yuqori malakali kadrlar turistik klaster modeli”dan foydalanish Qashqadaryo viloyatida turizm sohasiga yuqori malakali kadrlar tayyorlashning hududiy turistik-klaster modeli sifatida amaliyotga joriy qilinishini yanada rag‘batlantiradi.
4. Turizm sohasining yuqori malakali kadrlar bilan ta‘minlanganlik darajasiga ta‘sir etuvchi omillarni ichki va xorijiy turistlarning talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib, zanjirli almashtirish va indeks usullarini qo‘llagan holda aniqlash tartibidan foydalanish maqsadga muvofiq. Bu o‘z navbatida tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi.
5. Oliy ta‘lim va turizm xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini davlat xususiy sherikchilik munosabatlarini shartnoma, investitsiya va hissadorlik strategik rejalari asosida takomillashtirilishi, bu borada davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi sherikchilik munosabatlarini rivojlantirish zarur. Turizm sohasida kadrlar tayyorlash bo‘yicha buyurtmalarni shakllantirish, bitiruvchilarga qo‘yiladigan malaka talablarini ishlab chiqish, soha uchun zarur mutaxassislarni sifatli tayyorlashni ta‘minlashda iqtisodiyot tarmoqlarining ishtiroki ham talabga javob berish lozimligidan kelib chiqib, ish beruvchilar tomonidan oliy ta‘lim dasturlari o‘zgaruvchan mehnat bozori talablariga mos kelishini ta‘minlash bo‘yicha tizimli ishlarni smarali yo‘lga qo‘yish hamda oliy ta‘lim, fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi o‘zaro integratsiyalashuvini ta‘minlash zarur.

Xulosa qilib aytganda, aytib o‘tilgan tavsiyalar amaliyotga joriy qilinsa, Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ko‘zda tutilgan turizmni rivojlantirish bo‘yicha qo‘yilgan vazifalarning bajarilishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-son Farmoni.
2. Mamatqulov S. Hududiy turizmni rivojlantirish asoslari. – Samarqand, 2021.y
3. Amriddinova R.S Tuxliyev O. I “Ekskursiya xizmatini tashkil qilish” o‘quv qo‘llanma 2015y

